

## ARXITEKTURA YO‘NALISHIDA “ARXITEKTURAVIY QALAMTASVIR” FANINI O‘QITISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Asqarali Sulaymonov,

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti  
“Muhandislik grafikasi” kafedrasida professori

**Annotatsiya.** Maqolada arxitektura ta'limida qalamtasvir fanini o'qitishning o'rni va bu jarayonda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar, bo'lajak arxitektorlar tayyorlashda konstruktiv qalamtasvirning o'rni va ahamiyati haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada arxitekturaviy qalamtasvirning ayrim qonuniyatlarining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari borasida taniqli rassomlarning fikrlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** arxitektura, qalamtasvir, mazmun va metodika, qonuniyat, tarixiy-nazariy asos, amaliy qo'llash, arxitektura ta'limi, bo'lajak arxitektor, tendensiya, yondashuv.

**Аннотация.** В статье изложены соображения автора о роле учебного предмета рисунок и методик, применяемых в процессе преподавания данной дисциплины. Также в статье приведены примеры об основных тенденциях истории становления и развития законов рисунка из творчества известных художников.

**Ключевые слова:** рисунок, содержание и методика, закономерности, историко-теоретические основы, практическое применение, архитектурное образование, будущие архитекторы, тенденция, подход.

**Annotation.** The article outlines the author's thoughts on the role of the subject, drawing and methods used in the process of teaching this discipline. The article also provides examples of the main trends in the history of the formation and development of the laws of drawing from the works of famous artists.

**Keywords:** drawing, content and methodology, laws, historical and theoretical foundations, practical application, architectural education, future architects, trend, approach.

**Kirish.** Arxitekturaviy qalamtasvir fanini o'qitishda bo'lajak arxitektor va dizayner mutaxassislarni tayyorlashda konstruktiv rasm ishlash muhim o'ringa ega. Shuning uchun arxitektura ta'limida talabalar "Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik" o'quv fani tarkibida majburiy mavzu sifatida obyektlar va inshootlarni qurish qonuniyatlarini konstruktiv qalamtasvir mashg'ulotlarida o'zlashtiradilar. Ayni paytda shaharsozlikni rivojlanish hamda xalqaro tajribalar, ilg'or tendensiyalar integratsiyasi sharoitida mazkur fanning mazmuni va metodikasini doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Mazkur muammoning dolzarbligi quyidagi omillar bilan tavsiflanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Afsuski, muayyan sabablarga ko'ra, "Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik" o'quv faniga ajratilgan o'quv soatlarining doimiy ravishda qisqarib borish tendensiyasi, shuningdek, arxitektura yo'nalishida kirish imtihonlari dasturida kasbiy (ijodiy) imtihonlarning bekor qilinishi arxitektura yo'nalishi uchun layoqati bor talabalarni tanlab olish imkoniyati keskin cheklanganligi sohaga mutloqo qiziqmaydigan, muayyan darajada tayyorgarligi hamda iqtidori bo'lmagan abituriyentlarni qabul qilish amaliyoti kuzatilmoqda. Natijada arxitektura yo'nalishiga kirayotgan talabalar, asosan, tasviriy san'at bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega

bo‘lmaganlardan iborat bo‘lmoqda. Bu omil talabalarning – bo‘lajak me‘morlarning ijodkor, yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlanishida jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, talabalarda obyektlarning konstruktiv tuzilishlari, me‘moriy kompozitsiya loyihalarini tayyorlashda tasviriy san‘at qonuniyatlaridan savodli foydalanish, kompozitsiya qonuniyatlarining optimal variantlarini qo‘llashda aynan shu yo‘nalishdagi nazariy bilimlar yetarli darajada emasligi hamda amaliy kompetensiyalarga ega bo‘lishlarida kamchiliklar kuzatilishiga olib kelmoqda. Shunday qilib, ushbu dolzarb muammoning hozirgi yechimlaridan biri “Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik” fanining amaldagi holatini zamonaviy talab va ehtiyojlar asosida qayta ko‘rib chiqish, uning mazmuni va o‘qitish metodlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligi ayon bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Arxitektura ta‘limi tarixida tasviriy san‘atning o‘rni va ahamiyati mashhur nazariyotchi, rassom va me‘morlar tomonidan qayd etib o‘tilgan. Xususan, Le Korbuzye ta‘kidlaganidek, aynan qalamtasvir fikrni ifoda etish va yetkazish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e‘tibor qaratgan. Chunki aynan tasviriy vosita tasavvurdagi obyektning funksional holatini qayta tiklash, transformatsiyalar uchun barcha zarur komponentlarni o‘z ichiga olgan hujjatga aylanishi mumkin. Shu tarzda taniqli rassomlar va me‘morlarning realistlik asarlari tarixiy qiymatga ega bo‘lib borgan.

**Tahlillar va natijalar.** Arxitekturaviy qalamtasvir, eng avvalo, asarning kompozitsion yechimlarini aniqlash vositasi sifatida ahamiyatlidir. Qalamtasvir, ta‘kidlanishicha, ayniqsa arxitektura ta‘limida muhim rol o‘ynaydi. Chunki arxitekturaviy qalamtasvir obyektlar, buyumlarning konstruktiv tuzilishi, barcha nisbatlari haqida aniq tasavvur hosil qilish vositasi bo‘lib, u me‘moriy kompozitsiyaning tasviriy ekvivalenti sifatida o‘zining doimiy qiymatini saqlab qoladi. Shu taruqa arxitekturaviy qalamtasvirda bajarilgan kompozitsiya konstruksiya va hajmlar, tekstura, obyektning yorug‘-soya parametrlari haqida tasavvur beradi, bu esa arxitekturaviy kompozitsiyaning yakuniy ko‘rinishi qanday bo‘lishini ko‘rsatadi. Va nihoyat, badiiy eskiz ko‘rinishida tez bajarilgan, arxitekturaviy kompozitsiyaning ko‘rinishi, kompozitsiya elementlarining aloqadorligi va nisbatlari, shahar landshaftini yoki uni o‘rab turgan tabiiy muhitning real holatini obyektiv tarzda tushunish uchun vizual obrazni ifodalashi kerak. “Bularning barchasini iloji boricha iqtisodiy jihatdan, resurslar va intensivlik nuqtai nazaridan tasavvur qilish, shunchaki uni xotiraga singdirish kerak. Bundan tashqari, qalamtasvir arxitekturani o‘rganishning ajoyib usullaridan biridir” [3,70]. Me‘mor o‘z g‘oyalarini dastlab aynan grafik vositalar orqali hali ham noaniq bo‘lgan dastlabki chiziqlardan tortib, konsepsiya haqida tasavvur beradigan yakuniy eskizlargacha o‘zida mujassam etadi. Buning asosida esa ijodiy izlanishning yakuniy bosqichida loyihalarning kompozitsion yechimi yaratiladi.

Ko'plab taniqli rassomlar va me'morlar arxitektura sohasida professional faoliyat ko'rsatish uchun qalamtasvirdan kasbiy mahoratning zarurligini ta'kidlab o'tganlar. Shu nuqtai nazardan, Uyg'onish davrining buyuk rassomi, muhandisi, me'mori va ixtirochisi Leonardo da Vinchining "Rasm chizishni bilmagan me'mordan qo'rqing", degan tarixiy iqtibosi alohida ahamiyatga ega. Xuddi shu g'oyani taniqli pedagoglar (H.Sultonov, F.Berdiyev), san'atshunoslar (Sh.N.Abdullayev), rassomlar (A.Aliqulov, R.Xudoyberganov) va me'morlar (N.Gilmanova, D.Nozilov) qo'llab-quvvatlaydilar.

Shaharsozlikning rivojlanishi va uning amaliyotiga eng yangi texnologiyalarning joriy etilishi me'morlik ta'limi mazmunini, ayniqsa, arxitekturaviy qalamtasvirni o'qitish mazmuni va metodikasini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqazo etadi. Arxitektura ta'limida arxitekturaviy qalamtasvir o'quv fanini o'qitishning an'anaviy usullari mavjud. Xususan, geometrik shakllardan hosil bo'lgan obyektlarni konstruktiv chizish talabalarning atrofdagi dunyoni, ayniqsa me'moriy inshootlarning shakli va dizaynini konstruktiv idrok etish va analitik tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun geometrik shakllardagi obyektlarni konstruktiv tasvirlash "Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik" fanining majburiy komponenti sifatida amaliy o'qitish nazarda tutiladi. Geometrik jismlarni konstruktiv chizish – ya'ni obyektning go'yo ichkaridan tasvirlash, uning mos keladigan tashqi shakli va ichki tuzilishini ochib berish – me'morning fikrlash tarzi va obyektning tuzilishi va texnologik dizaynini ko'rish zarurati bilan belgilanadi. Shunday qilib, chiziqli-konstruktiv qalamtasvir usuli invariantlarni aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Konstruktiv qalamtasvir vositalarida shakllarning alohida tarkibiy qismlari va kesishmalarini - tabiatning butun tuzilishi, uning tayanch nuqtalari va boshqa xarakterli xususiyatlarini vizual tarzda aniqlash mumkin. Bu idrok jarayonini izchil ravishda katta farqlanishlarni aniqlashga yo'naltirish imkonini beradi. Ayniqsa, arxitektura ixtisosligida geometrik shakllarning chiziqli-konstruktiv tasvirlariga alohida e'tibor beriladi. "To'g'ri bajarilgan chiziqli-konstruktiv tasvirlardagi chiziqlar bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak, chunki ular natyurmortni (bizning misolimizda konstruktiv qalamtasvirni) bo'ysunuvchi, ammo alohida obyektlarga ajratadi. Chizmada bir xil chiziq turlicha funktsiya bajarishi ham mumkin. Bu uning boshqa chiziqlar bilan qanday aloqadorligiga bog'liq. Chiziqli-konstruktiv tasvirlardagi asosiy ma'lumot, ko'rinishlar chiziqlarning o'zlari emas, balki ularning kesishmalari orqali tasvirlanadi. Faqat chiziq (sirtlar)larning tutashish va kesishish joylari sirtlarning o'zgaruvchan perspektivasi ostida o'zgarib bo'lib qoladi. Bundan tashqari, talaba tasvirlangan modeldagi ma'lumotlarning katta qismi chizish jarayonida o'zgarishini tushunishi kerak. Konstruktiv qalamtasvirda rassom obyekt yaratmaydi, balki tasavvurdagi g'oyani badiiy tasvirini yaratadi" [7,104]. Shu tarzda fundamental me'moriy loyihalarning eskiz versiyalari yaratiladi va ular arxitekturaviy kompozitsiya loyihasi sifatida taqdim etiladi.

Arxitektura ta'limidan farqli o'laroq, tasviriy san'atda chizishning boshqa maqsadi bor, uning asosiy maqsadi tabiatning plastik xususiyatlarini tasvirlashdir. "Bunday tasvir har qanday ijodkor tomonidan yaratiladigan kompozitsiyaning badiiy asosini tashkil etadi (albatta, atrofimizdagi dunyoning uyg'unligini topish va obyektiv tarzda tasvirlash vazifasini qo'ymaydigan zamonaviy badiiy ta'lim amaliyotidan tashqari). Uning xususiyatlari xarakter, harakat, hajm va makonni, shuningdek, tasvirlangan obyektlar, buyumlar yoki personajlarning estetikasini yetkazish uchun zarur bo'lgan ifodali vositalarni izlash bilan bog'liq. Shu kabi tasvirlarning eng yorqin namunasi Mikelanjeloning grafik asarlarida o'z ifodasini topgan" [3,70]. Arxitekturaviy qalamtasvir fani mazmuni va metodikasini takomillashtirishning ta'sirchan namunasi sifatida tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalarida rasm chizishni majburiy fan sifatida o'qitish nazariyasi va metodologiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan taniqli rassomlarning ijodiy meroslaridan foydalanishni e'tirof etish mumkin. Xususan, taniqli nemis grafik rassomi va san'at nazariyotchisi A. Dyurer o'zining mashhur risolalarida rasm chizishning asosiy nazariy tamoyillarini badiiy ifoda etishning alohida sohasi sifatida shakllantirgan. Arxitektura grafikasi nuqtai nazaridan Dyurerning ishi juda ibratli, chunki uning chizmalarida har doim tasviriy san'at qonuniyatlariga muvofiq obyektlar tuzilishi va atrof-muhitni tahlil qilishga ustuvor ahamiyat berilgan. Shuning uchun uning asarlaridan namuna sifatida foydalanish me'morlarning professional faoliyatlarida qo'llaniladigan tasviriy san'atning qonuniyatlarini amaliy tushuntirish funksiyasini bajaradi.

Bo'lajak me'morning kasbiy tayyorgarligining dastlabki bosqichlaridanoq rasm chizish uning dunyoqarashining bir qismiga aylanishi kerak, bu poydevorga me'mor arxitekturaviy kompozitsiyalar yaratishda yanada murakkab va ixtisoslashgan tushunchalar va ko'nikmalar qo'shiladi. Shu munosabat bilan me'morlik sohasida yuqori malakali mutaxassislar sifatida individual ijodiy uslublarni rivojlantirish jarayonida ijodiy taqlid qilishning yorqin namunasi sifatida o'tmishdagi me'mor ustalar hamda rassomlarning ishlaridan ilhom olish tavsiya etiladi.

Arxitektura sintetik mazmunga ega bo'lgan yuksak san'at bo'lib, uning qonuniyatlarini o'zlashtirish uchun eskizlar, qoramalar, chizmalar va loyihalar shaklida me'moriy asarlar yaratish nazariyasi va amaliyotini sinchkovlik bilan puxta o'rganish, vorislik tamoyiliga va o'quv topshiriqlarining murakkabligining bosqichma-bosqich o'sib borishiga amal qilish talab etiladi. Shunga ko'ra, arxitekturaviy qalamtasvir asoslarini o'qitish amaliyoti o'quv materialining uzviyligi va uzluksiz taqdim etilishining didaktik tamoyiliga amal qilib, o'quv topshiriqlarining tegishli darajada murakkabligi bilan amalga oshiriladi. Arxitektura ta'limida rasm chizishni oq'itishning barcha bosqichlarida talabalarning individual va tipologik xususiyatlariga muvofiq o'quv materialining mazmuni va murakkablik darajasi jihatidan mos metodologiyani tanlash alohida ahamiyatga ega. O.V.Osmolovskayaning fikriga ko'ra, "Rasm chizish ijodkor shaxs uchun

keng qamrovli xususiyatga ega edi va bu kelajakdagi rassomlarning, jumladan, me'morlarning o'ziga xos o'qitish usullari" [3,71] ahamiyatiga ustuvorlik beradi.

Shaharsozlik rivojining zamonaviy sharoitdagi ustuvor tendensiyalari xalqaro amaliyotning ilg'or an'alarining integratsiyalash, shuningdek, arxitekturani fundamental fan sifatida rivojlantirish "konstruktiv yechimlarni izlashga" talabalarda shu yo'nalishdagi kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositalaridan biri – tasviriy san'at ta'limi mazmuni va o'qitish metodlarini doimiy va tizimli ravishda yangilab borish va takomillashtirish talab etiladi. [7,103]. Hozirgi tendensiyalar arxitektura ta'limida yangi yondashuvlar bilan bog'liq holda yangilangan mazmun va usullarni moslashtirishni talab qiladi.

Bo'lajak me'morlarni tayyorlash keng ko'lamli ixtisoslashuvlarga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Shuning uchun, "arxitekturaviy qalamtasvirni o'qitish metodlarini rivojlantirish va takomillashtirish ta'lim muassasasi ta'lim tizimidagi integratsiya jarayoni bilan bog'liq bo'lishi kerak. Arxitekturaviy qalamtasvirni o'qitishning eng samarali usullarini aniqlash uchun ilmiy va nazariy asoslash bilan bir qatorda o'qituvchining keng amaliy tajribasi muhimdir" [7,140]. Arxitekturaviy qalamtasvirdan amaliy topshiriqlarni bajarish mazmuni va metodlari, asosan, talabalarning tasviriy san'atning nazariy asoslari haqidagi bilimlari, ularning professional idroki, vizual xotirasi va xayoliy fikrlashi bilan belgilanadi. Shuning uchun talabalarga hajmli strukturaviy shakllarni tasvirlashning optimal texnikasini o'zlashtirish, ayniqsa muhimdir. Shu tariqa arxitekturaviy qalamtasvir bo'yicha o'qitish fundamental bo'lishi va talabalarning o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga yordam berishi kerak.

Talabalarning tasviriy san'at qonuniyatlarini o'zlashtirishi bo'yicha kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, murakkab obyekt, butun tabiatni va uning tafsilotlarini idrok etish nafaqat modelning tashqi parametrlari xususiyatlariga, balki bo'lajak me'morlarning diqqat va motivatsion munosabatiga ham bog'liq.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan mulohazalar quyidagi xulosalarni ilgari surishga asos bo'ldi:

Arxitektura asoslarini chuqurroq o'rganishni istagan har bir kishi uning barcha grafik fanlarini o'zlashtirishga intilishi kerak, eskizdan boshlab, mos asbob - qalam, marker yoki boshqa grafik material yordamida qo'lda tezda chizilgan chizmadan boshlab, chiziqli ishlarning aniqligi va aniq jozibadorligini ta'minlaydi. Uning maqsadi har qanday me'moriy inshootni belgilash va turli qismlarga ajratish, shuningdek, har qanday loyihani aniq metrik tasvirlash imkonini beradigan turli xil grafik texnikalar, shartlar va tegishli tasvirlash usullaridan foydalangan holda berilgan shaklning xususiyatlarini geometrik jihatdan aniqlashdan iborat bo'lishi lozim. Talabalarning konstruktiv chizish va detallar va obyektlarning geometrik tuzilmalarini tahlil qilish bo'yicha orttirgan ko'nikmalari arxitekturada professional faoliyat yuritish uchun fundamental nazariy va amaliy asos yaratadi.

Shunday qilib, “Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik” kursining mazmuni va o‘qitish usullarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagicha **tavsiyalar** berish mumkin. Talabalarning ijodkorligini rivojlantirishga, original kompozitsion yechimlarga ijodiy yondashuvga va talabalarning individual ehtiyojlariga asoslangan turli xil o‘quv materiallariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu yondashuv o‘quvchilar tomonidan tasviriy san‘at tamoyillarini samarali o‘zlashtirishni kafolatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Гильманова Н.В. Рисунок. Учебно-методическое пособие. – Т.: ТАҚИ, 2015. – 200 с.
2. Медведев Л. Г. Академический рисунок в процессе художественного образования. – Омск: Издательский дом «Наука», 2008. – 290 с.
3. Осмоловская О.В. Рисунок в современной подготовке студента-архитектора / Журнал «Архитектура». 2014.№3. – 70 с.
4. Соколов Н.В. Рисование малых архитектурных форм и деталей. Учебное пособие. – М.: МАРХИ, 1998.
5. Sulaymonov A., Berdiyev F.A., Ergashev A.A. Arxitekturaviy qalamtasvir. O‘quv qo‘llanma.– Toshkent: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti, 2025.–88 b.
6. Сухарев А.И. Совершенствование методики обучения академическому рисунку студентов факультетов искусств педагогических вузов / Журнал “Гуманитарные исследования». 2015. № 4. – С. 103 – 105.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
**N M P I**  
1934